

NEMIS TILIDAN O‘ZBEK TILIGA YOZMA TARJIMANING LINGVISTIK HUSUSIYATLARI

Isakova Dilrabo Botirjonovna,

O‘zDJTU Tarjimonlik fakulteti

Roman –german tillari tarjimashunosligi kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola tillararo aloqa jarayonining muhim tarkibiy qismlari bo'lgan tarjimaning lingvistik jihatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Qolaversa, tarjima jarayonining semantik, sintaktik va pragmatik xususiyatlari bilan bir qatorda ekvivalentlik, transformatsiya, til aralashuvi tushunchalarini o'z ichiga olgan tarjimaning nazariy asoslarini ko'rib chiqadi. Manba matnining leksik, grammatik va stilistik elementlarini uzatishda yuzaga keladigan muammolarga, shuningdek tarjimonlar ularni mohirona bartaraf etish uchun foydalanadigan strategiyalarga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada turli janrlardagi asl va tarjima qilingan matnlarni qiyosiy tahlil qilish orqali tarjima amaliyotida keng tarqalgan xatolar va samarali yechimlarni ochib beradi.

Kalit so‘zlar: tarjima, yozma tarjima, lingvistik tahlil, ekvivalentlik, transformatsiya, semantika, sintaksis, pragmatika, tarjima strategiyalari, nemis tili, o‘zbek tili

Annotation: This article is devoted to the analysis of the linguistic aspects of translation, which represent an essential component of the process of interlingual communication. Furthermore, it examines the theoretical foundations of translation, encompassing the concepts of equivalence, transformation, and language interference, as well as the semantic, syntactic, and pragmatic characteristics of the translation process. Special attention is given to the challenges that arise in conveying the lexical, grammatical, and stylistic elements of the source text, as well as to the strategies that translators skillfully employ to overcome these difficulties. Through a comparative analysis of original and translated texts from various genres, the article reveals common errors and effective solutions in translation practice.

Keywords: translation, written translation, linguistic analysis, equivalence, transformation, semantics, syntax, pragmatics, translation strategies, German language, Uzbek language.

Annotation: Der vorliegende Artikel ist der Analyse der linguistischen Aspekte der Übersetzung gewidmet, die als ein wesentlicher Bestandteil des Prozesses der interlingualen Kommunikation betrachtet wird. Darüber hinaus werden die theoretischen Grundlagen der Übersetzung untersucht, die die Begriffe Äquivalenz, Transformation und Sprachinterferenz sowie die semantischen, syntaktischen und pragmatischen Merkmale des Übersetzungsprozesses umfassen. Besonderes

Augenmerk gilt den Problemen, die bei der Übertragung der lexikalischen, grammatikalischen und stilistischen Elemente des Ausgangstextes auftreten, sowie den Strategien, die Übersetzer geschickt anwenden, um diese Schwierigkeiten zu überwinden. Durch den vergleichenden Analyseansatz von Original- und übersetzten Texten verschiedener Genres werden in dem Artikel häufige Fehler und effektive Lösungsansätze in der Übersetzungspraxis aufgezeigt.

Schlüsselwörter: Übersetzung, schriftliche Übersetzung, linguistische Analyse, Äquivalenz, Transformation, Semantik, Syntax, Pragmatik, Übersetzungsstrategien, deutsche Sprache, usbekische Sprache

Har qanday tarjima jarayonida ishtirok etuvchi tillarning lingvistik tizimini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Nemis va o'zbek tillari turli til oilalariga mansub bo'lib, ularning tipologik xususiyatlari sezilarli darajada farqlanadi. Nemis tili – german tillari guruhiga kiruvchi flektiv til bo'lsa, o'zbek tili – turkiy tillar oilasiga mansub agglutinatativ til hisoblanadi. Shu bois, ikki tilni qiyoslash tarjima jarayonida yuzaga keladigan grammatik, leksik va sintaktik muammolarni aniqlashga yordam beradi.

1. Fonetik xususiyatlar - Nemis tilida urg'u asosan birinchi bo'g'inga tushsa-da, qo'shimchalar va qo'shma so'zlarda urg'u o'zgarishi mumkin. O'zbek tilida esa urg'u ko'pincha so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. Bu holat ayrim o'rinlarda tarjima jarayonida talaffuz yoki ohang farqlarini hisobga olishni talab qiladi. Masalan:

-Nemischa: „Universität“(urg'u oxirgi bo'g'inda)

-O'zbekcha: „Universitet“ (urg'u ham oxirida, lekin talaffuzda fonetik farq seziladi).

2. Morfologik xususiyatlar - Nemis tili flektiv til bo'lib, otlar, sifatlar va artikllar jins (der – erkak, die – ayol, das – o'rta), son va kelishikka ko'ra o'zgaradi. O'zbek tilida jins kategoriyasi mavjud emas, son va kelishik esa qo'shimchalar yordamida ifodalanadi. Masalan:

- Nemischa: „Das schöne Haus.“

- O'zbekcha: „Chiroyli uy.“

Bu misolda nemis tilidagi das artikli va -e qo'shimchasi sifatning otga moslashuvini bildiradi. O'zbek tilida esa so'z tartibi va sifatning mustaqil shakli orqali ifodalanadi.

3. Sintaktik xususiyatlar - Nemis tilida gap qurilishi ko'p hollarda SVO (sub'ekt + fe'l + ob'ekt) tartibida bo'lsa-da, fe'lning ikkinchi o'rinda kelishi qat'iy talabdir. Shuningdek, qo'shma gaplarda kesim ko'pincha oxirida joylashadi. O'zbek tilida esa odatiy tartib SOV (sub'ekt + ob'ekt + fe'l) ko'rinishidadir. Masalan:

- Nemischa: „Ich lese das Buch.“ (Men kitobni o'qiyapman) – SVO.

- O'zbekcha: „Men kitobni o'qiyapman.“

Ko‘rinib turibdiki, ikki til sintaksisidagi bu farqlar tarjima jarayonida so‘z tartibini qayta tuzishni taqozo etadi.

4. Leksik-semantik xususiyatlar - Nemis va o‘zbek tillarida leksik tizimda ham jiddiy tafovutlar mavjud. Nemis tilida ko‘plab murakkab so‘zlar qo‘llanilsa (Krankenhausverwaltung – “kasalxona ma’muriyati”), o‘zbek tilida bu kabi tushunchalar birikma yoki izohli shaklda ifodalanadi. Bundan tashqari, madaniy o‘ziga xosliklar ham leksik tafovutlarga sabab bo‘ladi. Masalan:

- Nemischa: „Bundeskanzler“ – Germaniya siyosiy tizimiga xos atama.

- O‘zbekcha tarjima: „Kansler“ yoki „Germaniya kansleri“ tarzida izohli beriladi.

5. Frazologik xususiyatlar -Nemis tilidagi ko‘plab iboralar o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z tarjima qilinganda ma’nosiz bo‘lib qoladi. Shu sababli ularni ekvivalent frazeologik birliklar yoki izohli tarjima orqali berish lozim. Masalan:

- Nemischa: „Tomaten auf den Augen haben.“ (so‘zma-so‘z: ko‘zida pomidor bo‘lish)

- O‘zbekcha adekvat tarjima: „Hech narsani ko‘rmay qolmoq.“

Demak, nemis va o‘zbek tillarining fonetik, morfologik, sintaktik va leksik-semantik tizimidagi farqlar tarjima jarayonida lingvistik qiyosiy tahlilni talab qiladi. Bunday yondashuv tarjimonning so‘zma-so‘z tarjimadan qochib, mazmun va uslubni adekvat yetkazishga erishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarjima nazariyasining eng muhim tushunchalaridan biri bu – ekvivalentlikdir. Ekvivalentlik deganda bir tildagi matn mazmunini boshqa tilda imkon qadar teng darajada ifodalash tushuniladi. Biroq tillarning grammatik, leksik va uslubiy tizimlari turlicha bo‘lgani sababli tarjimada to‘liq ekvivalentlikka erishish har doim ham mumkin emas. Ayniqsa, nemis va o‘zbek tillari tipologik jihatdan farqlangani uchun tarjimon turli muammolarga duch keladi.

1. To‘liq ekvivalentlik holatlari

Ba’zi so‘zlar yoki iboralar ikki tilda ham mazmun va shakl jihatdan bir-biriga juda yaqin keladi. Bunday hollarda tarjima deyarli muammo tug‘dirmaydi. Masalan:

- Nemischa: „Universität“ – O‘zbekcha: „Universitet“

- Nemischa: „Telefon“ – O‘zbekcha: „Telefon“

Bu misollar xalqaro atamalar bo‘lgani uchun semantik jihatdan ham mos tushadi.

2. Qisman ekvivalentlik muammolari

Ko‘pincha so‘zlarning ma’nosi to‘liq emas, balki qisman mos tushadi. Bunday hollarda tarjimon so‘zning kontekstini hisobga olib, eng yaqin ma’nodagi variantni tanlashi lozim. Masalan:

- Nemischa: „Freund“ – O‘zbekcha: „Do‘st“ yoki „tanish“ (kontekstga qarab).

- Nemischa: „Heimat“ – O‘zbekcha: „Vatan“ yoki „ona yurt“.

Ko‘rinib turibdiki, bu so‘zlar o‘zbek tilida bir nechta ma’noga ega bo‘lishi mumkin.

3. *Tarjima qilinmaydigan birliklar*

Ba’zan nemis tilida mavjud bo‘lgan so‘z yoki iboralarning o‘zbek tilida tayyor ekvivalenti mavjud emas. Bunday hollarda izohli tarjima yoki madaniy moslashtirish usuli qo‘llanadi. Masalan:

- Nemischa: „Schadenfreude“ – O‘zbekcha: „Boshqalarning baxtsizligidan quvonish“.

- Nemischa: „Kaffeeklatsch“ – O‘zbekcha: „Ayollar o‘tirib suhbatlashadigan choyxonadek yig‘in“.

4. *Idiom va frazeologizmlardagi muammolar*

Nemis tilidagi idiomatik iboralar so‘zma-so‘z tarjima qilinganda o‘zbek tilida tushunarsiz bo‘lib qoladi. Shuning uchun tarjimon ular uchun ekvivalent o‘zbekcha iborani topishi yoki mazmunini izohli shaklda berishi kerak. Masalan:

-Nemischa: „Ins Gras beißen.“ (so‘zma-so‘z: “o‘tni tishlash”)

-O‘zbekcha adekvat tarjima: „Vafot etmoq“.

-Nemischa: „Das ist nicht mein Bier.“ (so‘zma-so‘z: “Bu mening pivom emas”)

-O‘zbekcha adekvat tarjima: „Bu mening ishim emas“.

5. *Grammatik ekvivalentlikdagi qiyinchiliklar*

Nemis tilida jins va artikllarning mavjudligi, fe’llarning ko‘plik shakllari hamda qo‘shimcha modal fe’llar tarjimada qiyinchilik tug‘diradi. O‘zbek tilida jins kategoriyasi yo‘qligi sababli ba’zan mazmunni aniqlashtirish zarur bo‘ladi. Masalan:

-Nemischa: „Der Arzt hat gesagt...“

-O‘zbekcha: „Shifokor aytdi...“

Bu yerda der artikli erkak jinsni bildiradi, ammo o‘zbek tilida jins ko‘rsatilmaydi. Nemis tilidan o‘zbek tiliga tarjimada ekvivalentlik masalasi turli darajalarda – grammatik, leksik va frazeologik birliklarda namoyon bo‘ladi. Tarjimonning vazifasi – so‘zma-so‘z o‘tkazishdan ko‘ra, ma’noni va kontekstual moslikni saqlagan holda adekvat ekvivalentni topishdir.

Tarjima nazariyasi doirasida o‘rganilgan lingvistik masalalarni amaliy misollar orqali tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Quyida nemis tilidan o‘zbek tiliga turli uslublardagi yozma matnlar tarjimasi keltirilib, ularning lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi.

1. *Ilmiy matn tarjimasi.* Ilmiy matnlarda asosiy talab – aniqlik, izchillik va terminologik moslikdir. Nemis tilidagi ilmiy matnlar ko‘pincha murakkab qo‘shma gaplardan iborat bo‘ladi. Misol:

-Nemischa: „Die globale Erwärmung ist ein komplexer Prozess, der durch menschliche Aktivitäten wie Industrieemissionen und Abholzung verursacht wird.“ -

O‘zbekcha tarjima: „Global isish – bu sanoat chiqindilari va o‘rmonlarning kesilishi kabi inson faoliyati natijasida yuzaga keladigan murakkab jarayondir.“

Tahlil: Gapdagi sabab-natija munosabatlari o‘zbek tilida izchil sintaktik qurilish orqali berildi. Terminlar (globale Erwärmung – global isish, Industrieemissionen – sanoat chiqindilari) aniq ekvivalentlarda qo‘llanildi.

2. *Badiiy matn tarjimasi*. Badiiy asarlarda obrazlilik va estetik ta’sirni saqlash eng muhim vazifalardan biridir. Misol:

-Nemischa: „Die Nacht legte ihren dunklen Mantel über die Stadt.“

-O‘zbekcha tarjima: „Tun shaharni o‘zining qorong‘i libosi bilan o‘radi.“

Tahlil: Nemis tilidagi metafora (dunklen Mantel – “qorong‘i libos”) o‘zbek tilida ham obrazli shaklda ifodalandi. Bu tarjimada semantik ekvivalentlik saqlanib, estetik ta’sir ham berilgan.

3. *Rasmiy hujjatlar tarjimasi*. Rasmiy uslubdagi tarjimalarda aniqlik va ixchamlik birinchi o‘rinda turadi. Misol:

-Nemischa: „Hiermit wird bestätigt, dass Herr Müller am 15. Mai 2025 an der Konferenz teilgenommen hat.“

-O‘zbekcha tarjima: „Mazkur hujjat bilan Müller janobining 2025-yil 15-may kuni konferensiyada qatnashgani tasdiqlanadi.“

Tahlil: Bu misolda rasmiy uslubning talablari – aniqlik va huquqiy me’yorlarga moslik saqlangan. Tarjima so‘zma-so‘z emas, balki hujjat tiliga mos ravishda berilgan.

Xulosa qilib aytganda, yozma tarjima kasbiy faoliyatning ko‘plab sohalarida – siyosat, iqtisodiyot, huquq, texnika, ilm-fan va madaniyatda ajralmas ahamiyat kasb etadi. Tarjimonlik ko‘nikmalari mutaxassisning raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Garchi zamonaviy texnologiyalar – CAT vositalari, mashina tarjimasi, elektron lug‘atlar va sun’iy intellekt asosidagi dasturlar tarjima jarayonining tezligi va sifatini sezilarli darajada oshiradi. Ammo ular tarjimonning mustaqil tafakkuri va ijodiy qobiliyatini to‘liq almashtira olmaydi. Oliy ta’lim tizimida yozma tarjimani o‘qitish nafaqat lingvistik bilimlarni, balki ijodiy yondashuv, madaniy tafakkur va kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, yozma tarjimani o‘rgatishda nazariya va amaliyot uyg‘unligi ta’minlanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Z.Sadikov: “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” Toshkent, 2022 yil
2. Austemühl, Fank. Electronic Tools For Trnslators (Translation Pastises Explained) Papebask – April 1, 2001,
3. Соловьева А. Профессиональный перевод с помощью компьютера, Пите, 2008, 160 стр.
4. Usmonov A.I., Baxramov F.D. Kompyuter texnologiyalari asoslari. T., 2010.
5. Baker, M. (2018). In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge.
6. Bassnett, S. (2014). Translation Studies. Routledge.

7. G‘afurov, A. (2019). Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
8. Qodirova, N. (2021). “Tarjima jarayonida texnologiyalardan foydalanishning lingvistik va metodik asoslari.” Filologiya masalalari jurnali, 2(4), 45–53.